E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

O‘zbekistonning koronavirusga qarshi kurashishdagi tajribasi, Koronavirus bilan uch yil

Xamzaeva Nilufar Toshtemirovna
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Matnazarova Gulbaxor Sultanovna
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Mahanov Rasulbek Vali o‘g‘li
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Mahanova Gavhar Fozil qizi
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Annotatsiya: Ilmiy ishning mazmuni koronavirus covid-19 infeksyasini tarqalishini oldini olish, profilaktik chora tadbirlar ishlab chiqilishini taxlil qilishdan iborat. So‘nggi yillarda insoniyat qator global muammo va ofatlar bilan ro‘baro‘ kelmoqda. Ulardan biri bundan uch yil oldin e’lon qilingan va hanuz asoratlari sezilib turgan koronavirus pandemiyasidir.

Аннотация: Содержание научной работы заключается в предупреждении распространения корона вирусной инфекции covid-19, анализе разработки профилактических мероприятий. В последние годы человечество столкнулось с рядом глобальных проблем и катаклизмов. Одна из них пандемия корона вируса, о которой было объявлено три года

Abstract: The content of the scientific work is to prevent the spread of the coronavirus covid-19 infection, to analyze the development of preventive measures. In recent years, humanity has faced a number of global problems and disasters. One of them is the coronavirus pandemic, which was announced three years ago and whose complications are still felt.

O‘zbekiston hukumati, xususan, Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan o‘sha paytda ko‘rilgan chora-tadbirlar vaziyatni o‘z vaqtida jilovlashga juda katta yordam berdi. Tibbiyot muassasalari favqulodda ish rejimiga o‘tkazildi. Sihatgoh va oromgohlar karantin muassasalari sifatida moslashtirildi. Tibbiyot maskanlari dori-darmon, himoya va diagnostika vositalari bilan yetarli darajada ta’minlandi. Buning uchun budjetdan zarur mablag‘lar ajratildi.

Koronavirus infeksiyasining O‘zbekistonga kirib kelishi va tarqalishining oldini olish borasida izchil chora-tadbirlar ko‘rildi. Avvalo, Respublika maxsus komissiyasi tuzilib, unga xalqaro ekspertlar jalb etildi. Ular shtab mutaxassislari bilan birgalikda mamlakatda ushbu sohaga ixtisoslashgan davolash muassasalaridagi tibbiyot xodimlariga ham konsultativ yordam ko‘rsatdi. Davlat chegaralaridagi 53 ta sanitariya-karantin punktiga qo‘shimcha vrachlar, teplovizor va kontaksiz termometrlar, shaxsiy himoya vositalari ajratildi. Ushbu punktlardan o‘tayotgan har bir fuqaroning yashash joyi bo‘yicha ma’lumotlar olinib, birlamchi tibbiyot muassasalari tomonidan ular ustidan 14 kunlik tibbiy kuzatuv yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatga kirib kelayotgan minglab fuqarolar tibbiy kuzatuvga olinib, kasallik alomatlari yo‘qligiga ishonch hosil qilingachgina nazoratdan chiqarildi. Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tunu kun ishlovchi 1003 qisqa raqamli Call-markaz ishga tushirildi. U orqali koronavirus infeksiyasi bilan bog‘liq savollarga mutaxassislardan tibbiy asoslangan javoblar va tavsiyalar berib borildi.

O‘zbekiston hududida 2020 yil 24 mart soat 00:01 dan boshlab koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kuchaytirilgan tartib (karantin) joriy etildi. Xorijiy davlatlardan 20 ta charter reys orqali 6 ming, temiryo‘l va chegara postlari orqali 10 ming nafar fuqaromiz olib kelingani haqida xabar berildi. Ularning barchasi 160 ta manzilga joylashtirilib, karantinga olindi. Tajribali

shifokorlardan iborat maxsus shtab tuzilib, har bir bemorni davolashda 24 soatlik onlayn maslahat berish yo‘lga qo‘yildi. Xitoy va Janubiy Koreyadan virusologlar taklif qilindi. Rossiya, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Turkiya kabi qator davlatlar mutaxassislari bilan ham doimiy telemeditsina aloqalari o‘rnatildi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda «COVID-19 bo‘yicha milliy qo‘llanma» yaratilishi o‘zbek shifokorlari uchun kasallikka qarshi kurashda dasturilamal bo‘lib xizmat qildi. Kasallikning rivojlanish dinamikasiga qarab karantin cheklovlari goh yumshatilib, goh kuchaytirib borildi. Shu munosabat bilan moddiy daromad manbaini yo‘qotgan, ishsiz va ehtiyojmand aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar belgilandi. Iyul oyida kasallanish haddan ortiq kuchayishi sabab shifoxonalarga juda og‘ir bosim bo‘ldi. Ammo virusning yuqish darajasi hammada har xil edi. Shu sababdan ham ayrim bemorlarni uy sharoitida davolashga o‘tkazish orqali tibbiyot muassasalaridagi yuklamani ancha yengillashtirish mumkin edi. Ammo bemorlarni uyda davolash uchun biror yo‘riqnomaga ehtiyoj sezilardi. Shu sababdan ham Sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i asosida kovidning alomatsiz shakli bilan kasallanganlarni uy sharoitida davolash va epidemiologik surishtiruv o‘tkazish tartibi belgilandi. Respublika maxsus komissiyasi yig‘ilishida uyida muolaja olayotgan koronavirusga chalingan bemorlarni bepul dori-darmonlar bilan ta’minlash yuzasidan qaror qabul qilinib, ularga yetkazib beriladigan preparatlar ro‘yxati tasdiqlandi. Shuningdek, yurtimizda nodavlat tibbiyot tashkilotlariga pulli asosda COVID-19 infeksiyasini aniqlash hamda o‘z shifoxonasida davolashga rasmiy ruxsat berildi. Shu tarzda butun O‘zbekiston tibbiyoti Covid-19 ga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib kurashga kirdi. Prezident «Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishda fidoyilik ko‘rsatgan yurtdoshlarimizdan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi. Ushbu hujjat orqali pandemiya davrida millat salomatligi uchun kurashgan tibbiyot xodimlarining bir guruhi yuksak mukofotlar bilan taqdirlandi. Ular orasida virusga qarshi jangda qurbon bo‘lgan fidoyi shifokor va hamshiralarimiz ham bor edi. O‘zbekistonda pandemiya boshlangandan beri koronavirusga qarshi kurashish uchun hududlardagi tibbiyot muassasalari umumiy qiymati 85 049,3 ming AQSh dollariga teng tibbiyot jihozlari bilan ta’minlandi. Shuningdek, bemorlarni davolashga ixtisoslashgan maxsus shifoxona va karantin majmualari hamda zamonaviy laboratoriyalarni bunyod etish uchun 965 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Pandemiyaning birinchi kunlaridan boshlab, qisqa muddatda Toshkent shahri va hududlarda barcha sharoitlarga ega bo‘lgan qariyb 30 ming o‘rinli davolash maskanlari tashkil etilib, ular zarur dori-darmon, himoya, eng zamonaviy diagnostika va davolash vositalari bilan ta’minlandi. Qayd etish joizki, pandemiyaga qarshi kurashish uchun 200 ming nafardan ziyod tibbiyot xodimi, jumladan, 150 nafar chet ellik yuqori malakali mutaxassis jalb qilindi. Pandemiyaga qarshi kurash ishlari uchun 2021 yilgi davlat budjetidan 3 trillion so‘mlik zaxira shakllantirilib, ushbu mablag‘lar hisobidan emlash tadbirlari ham amalga oshirildi.

O‘zbekistonning koronavirusga qarshi kurashdagi tajribasi COVID-19 ga qarshi kurashda tibbiyoti rivojlangan ayrim davlatlar ham bemorlar uchun o‘rin-joy yetishmasligidan bir muddat sarosimada qolganini ko‘rdik. O‘zbekiston bu paytda o‘ziga xos alohida muassasa qurishni boshlab yuborgan edi. Zangiota tumanidagi maxsus shifoxona loyihasining umumiy qiymati 504 milliard so‘m bo‘lib, 33 gektarda 2 ta zamonaviy kompleks qad ko‘tardi. Bunda yuqumli kasalliklar xususiyati va eng so‘nggi tibbiyot talablari inobatga olindi. Muassasa 2 ming o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lsa-da, uni 4 ming o‘ringacha transformatsiya qilish imkoniyati bor edi. Aytish lozimki, pandemiya davomida mazkur tibbiyot muassasalari xalqimiz salomatligini asrash, xususan, COVID-19 ga chalingan og‘ir ahvoldagi bemorlarni davolash, ularga tezkor va sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish, bu orqali infeksiyaning aholi orasida keng tarqalib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha yurtimizdagi asosiy shifo maskanlariga aylandi**,** Markazimiz to‘liq quvvatda ishga tushgach, qator tibbiyot muassasalari o‘z yo‘nalishi bo‘yicha odatiy tartibda

faoliyatini davom ettira boshladi. Shunday qilib, koronavirus faqat maxsus shifoxonalarda davolanadigan bo‘ldi.

Vaksinatsiya Virusga qarshi kurashda eng asosiy omil, shubhasiz, vaksinatsiyadir. Pandemiya avj olgan davrlarda O‘zbekiston aholisi uchun vaksina yetkazib berilishi katta muammolardan biri bo‘lib turgan edi. Keyinchalik xalqaro tashkilotlar ko‘magi, hukumatimizning bu masalaga jiddiy e’tibori natijasida yurtimizga olib kelinadigan koronavirusga qarshi vaksinalar turi va dozasi ortib bordi. Hatto Xitoyda yaratilgan yangi turdagi preparat sinovlarida muvaffaqiyatli ishtirok etgani uchun O‘zbekiston ushbu vositaning hammuallifiga aylandi. Keyinchalik bir necha turdagi emdorilar yurtimizda ishlab chiqarilishiga ham erishildi. Shu paytgacha mamlakatimizda COVID-19 ga qarshi AstraZeneca, ZF-UZ-VAC2001, Sputnik-V, Moderna, Pfizer-BioNTech, Sinovac, Sputnik Light, Johnson&Johnson vaksinalaridan foydalanildi. Albatta, bu natijalarga osonlik bilan erishilmagani aniq. Bugungacha O‘zbekiston fuqarolari 75 million doza vaksina bilan emlandi. Ayni paytda birinchi dozani olish ko‘rsatkichi emlanishi rejalashtirilgan qatlamga nisbatan 100 foizni tashkil qilmoqda. Bundan tashqari, yurtdoshlarimiz 24 milliondan ortiq buster doza qabul qilgan.

Xulosa

«COVID-19 virusi hali ham oramizda. Bunday infeksiyalarga dunyomizni topshirib qo‘ymaslik uchun insoniyat tabiat bilan murosa qilib yashashga, o‘z salomatligiga befarq bo‘lmaslikka, ilm-fandan faqat odamlar salomatligini saqlashda foydalanishga, tibbiyotni to‘g‘ri yo‘nalishda rivojlantirishga majbur. Koronavirusni «beton to‘siqlar» bilan to‘xtatib bo‘lmasligini achchiq saboqlar orqali angladik. Shunga qaramay, Prezidentimizning tibbiyot sohasidagi oqilona siyosati, davlat tomonidan favqulodda vaziyatlarda ehtiyot choralari samarali tashkil etilgani, shifokorlar fidoyiligi, vaksinatsiya tadbirlari o‘z vaqtida yo‘lga qo‘yilgani, odamlarning sog‘lom turmush tarziga amal qilishi orqaligina bunday infeksiyalarga g‘ov bo‘lish mumkinligiga ishonch hosil qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matnazarova G. et al. The new coronavirus-cOvid-19 in Uzbekistan //Int. J. Pharm. Res. – 2020. – C. 548-556.

2. Mirtazayev O. M. et al. SCIENTIFIC, METHODOLOGICAL AND ORGANIZATIONAL BASES OF MANAGEMENT OF THE EPIDEMIC PROCESS IN CASE OF SALMONELLOUS INFECTION IN UZBEKISTAN //Central Asian Journal of Pediatrics. – 2020. – Т. 2020. – №. 3. – С. 5-14.

3. Urakovna N. N. et al. EPIDEMIOLOGICAL ANALYSIS OF THE HUMAN IMMUNODEFICIENCY VIRUS //World Bulletin of Public Health. – 2023. – Т. 21. – С. 95-98.

4. Toshtemirovna K. N., Islamovna S. G., Sultanovna M. G. THE EFFECTIVENESS OF A NEW FOOD SUBSTANCE-A HARD GELATIN CAPSULE-" SEDAN BARK" IS BEING STUDIED IN CHILDREN WHO HAVE RECOVERED FROM THE CORONAVIRUS //British View. – 2023. – Т. 8. – №. 3.

5. Khamzaeva N. T. et al. THE EFFECTIVENESS OF A NEW FOOD SUBSTANCE-A HARD GELATIN CAPSULE-«VIZION JUNIOR» IS BEING STUDIED IN

CHILDREN WHO HAVE RECOVERED FROM THE CORONAVIRUS //World Bulletin of Public Health. – 2023. – T. 20. – C. 41-45.

6. KJ K. A. K. O. G. O. K., Khamzaeva N. T. IDENTIFICATION OF THE PREVALENCE OF BREAST CANCER AMONG DIFFERENT AGE GROUPS OF THE POPULATION AND ITS PREVENTION //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 341-344.

7. Xamzaeva N. T. et al. COVID-19 infeksiyasi bilan kasallangan bolalarning epidemiologik taxlili //E Global Congress. – 2023. – T. 2. – C. 117-119.

8. Toshtemirovna K. N., Islamovna S. G., Sultanovna M. G. THE EFFECTIVENESS OF A NEW FOOD SUBSTANCE-A HARD GELATIN CAPSULE-" SEDAN BARK" IS BEING STUDIED IN CHILDREN WHO HAVE RECOVERED FROM THE CORONAVIRUS //British View. – 2023. – T. 8. – №. 3.

9. Kurbonov A. K. et al. IDENTIFICATION OF THE PREVALENCE OF BREAST CANCER AMONG DIFFERENT AGE GROUPS OF THE POPULATION AND ITS. – 2023.

10. Матназарова Г. С. и др. Вакцинопрофилактика Covid-19 в Узбекистоне. – 2022.

11. Saidkasimova N. S., Mirtazaev O. M. Epidemic Process of Salmonellosis in Tashkent //Indian Journal of Forensic Medicine & Toxicology. – 2020. – T. 14. – №. 4. – C. 7364-7367.

12. Расулов Ш. М. и др. Современные эпидемиологические особенности эхинококкоза и его профилактика //Школа эпидемиологов: теоретические и прикладные аспекты эпидемиологии. – 2020. – С. 51-53.

13. Mirtazayev O. M. et al. Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellous infection in Uzbekistan //Central Asian Journal of Medicine. – 2019. – T. 2019. – №. 4. – C. 72-80.

14. Rasulov S. M. Improving the epidemiology, epizootology, and prevention of echinococcosis in Uzbekistan. Sh. M. Rasulov, GS Matnazarova 2, A. Mirtazayev 3, NT Xamzayeva 4 //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – T. 7. – №. 02. – C. 2020.

15. Toshtemirovna K. N., Sultanovna M. G., Mirtazaevich M. O. “Covid-19 Infectionsining Epidemiologists Khususiyatlari"(Toshkent Shahri Misolid) //JournalNX. – C. 589-594.

16. Хамзаева Н. Т., Матназарова Г. С., Расулов Ш. М. ТОШКЕНТ ШАҲРИДА COVID-19 ИНФЕКЦИЯСИ БИЛАН КАСАЛЛАНГАНЛАРНИНГ ЭПИДЕМИОЛОГИК ТАҲЛИЛИ //ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ. – С. 71.

17. Матназарова Г. С., Хамзаева Н. Т., Абдуллаева Ф. О. Covid-19 Инфекцияси билан касалланиш курсаткичларини беморларнинг жинси, ёши, касби ва кунлар бўйича тахлили //ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 80-81.

18. Toshtemirova X. N., Qudrat o'g'li S. A. COVID 19 INFEKSIYASINING BOLALARDA KLINIK KECHISHI //IQRO JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 1. – C. 8-11.

19. Хамзаева Н. Т., Матназарова Г. С. COVID-19 ИНФЕКЦИЯСИДАН ХИМОЯЛАНИШДА ШАХСИЙ ҲИМОЯ ВА АНТИСЕПТИК ВОСИТАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ //PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 80-82.

20. Матназарова Г. С., Хамзаева Н. Т., Абдуллаева Ф. О. Covid-19 Инфекцияси билан касалланиш курсаткичларини беморларнинг жинси, ёши, касби ва кунлар бўйича тахлили //ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 80-81.

21. Хамзаева Н. Т. и др. THE EFFECTIVENESS OF A NEW FOOD SUBSTANCE-A HARD GELATIN CAPSULE-" SEDAN BARK" IS BEING STUDIED IN CHILDREN WHO HAVE RECOVERED FROM THE CORONAVIRUS //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 12. – С. 201-207.

22. Хамзаева Н. Т. и др. THE EFFECTIVENESS OF A NEW FOOD SUBSTANCE-A HARD GELATIN CAPSULE-" SEDAN BARK" IS BEING STUDIED IN CHILDREN WHO HAVE RECOVERED FROM THE CORONAVIRUS //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 12. – С. 201-207.

WORDLY
KNOWLEDGE